

**“GULISTON” ASARIDA QO‘LLANGAN در (dar) PREFIKSLI
QO‘SHMA FE‘LLAR XUSUSIDA**

Turdaliyev Olimjon Fayzullajon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annontatsiya. در (dar) prefiksi اندر (andar) prefiksining qisqargan varianti hisoblanadi. Fors tili taraqqiyotining ma‘lum davrlarida har ikki variantning faol qo‘llanishi kuzatilsa, keyingi davrlarda اندر (andar) prefiksining qo‘llanishi cheklanib, asta-sekin o‘rnini o‘zining allomorfi در (dar) prefiksiga bo‘shatib bergan va hozirgi fors tili uchun tarixiy shaklga aylangan. در (dar) prefiksi kalssik davrga oid matnlarda aksariyat o‘rinlarda sodda fe‘llarning ma‘nosiga deyarli ta‘sir etmagan holatda uning morfem tarkibiy qismi sifatida uchraydi: *Dar robudan, dar sepordan, dar oftādan, dar rixtan, dar bastan, dar oftādan...* Shuningdek, در (dar) prefiksi bilan yondosh holatda اندر (andar) so‘zining “Guliston” hamda o‘sha davrlarda yozilgan boshqa asarlarda **analitik old qo‘shimcha** va prefiksli fe‘llarning tarkibiy qismi sifatida keng qo‘llanilishi kuzatiladi. X-XIII asrlarda yaratilgan asarlarda اندر (andar) prefiksining old qo‘shimcha funksiyasida qo‘llanilishi در (dar) prefiksiga nisbatan keng bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: در (dar) prefiksi, qo‘shma fe‘l, ism qism, analitik shakl.

“Guliston” qo‘shma fe‘llarning *dar prefiksi+ism+fe‘l* qolipidagi turi nisbatan kam uchraydi. Aksariyat holatlarda ularning morfemik tarkibiga kiruvchi qismlar o‘zining avvalgi leksik ma‘nosidan uzoqlashib, analitik holatdagi bir so‘zga aylanadi va bir tushunchani ifodalaydi:

ملک سر و چشمش ببوسید و در کنار گرفت و هر روز نظر بیش کرد تا ولی عهد خویش کرد.

Malek sar wa češmaš bebusid wa dar kenār gereft wa har ruz nazar-e biš kard tā waliahd etdi.

Tarjimasi: *Undan so‘ng podshoh shahzodani quchog‘iga olib, bosh-u ko‘zini o‘pib va kun-kundin ziyodaroq nazar qilib, o‘ziga valiahd etdi.*

Ushbu jumlada – در کنار گرفتن – *(dar kenār gereftan* – so‘zma-so‘z “yonida tutmoq”) “quchoqlamoq” ma‘nosida kelgan.

Quyidagi misolda ham aynan shu qo‘shma fe‘lning “quchoqlamoq” ma‘nosida kelganligini ko‘rishimiz mumkin:

هلاک من اولاتر است از خون بی گناهی ریختن. سر و چشمش بیوسید و در کنار گرفت و نعمت بی اندازه بخشید و آزاد کرد.

Halāk-e man awlātar ast az xun-e bigunāhi rixtan. Sar wa češmaš bebusid wa dar kenār

Tarjiması: *Bir begunohning qonini to'kishdan ko'ra mening halokim a'loroqdir. Bosh-ko'zini o'pdi va bag'riga bosdi, ko'p ne'matlar bag'ishladi va ozod qildi.*

Dar prefiksli qo'shma fe'llarning qismlari ham aksariyat o'rinlarda o'z leksik ma'nosini fi aljمله بنشستم و از هر دری سخن پیوستم تا حدیث زلت یاران در میان آمد و گفتم.

Filjomle, benešastam wa az har dari suxan peywastam tā hadis-e zellat-e yārān dar miyān āmad wa goftam. (G. 101-bet).

Tarjima: *Xullas, o'tirdim va har tarafdin so'z aytishni boshladim, to so'z o'sha toifaning mazallatiga yetdi va dedim.*

Aksariyat prefiksli qo'shma fe'llar sodda fe'llar bilan sinonim bo'la oladi. Lekin "Guliston" پارسا بین که خرقة دربرکرد جامه کعبه را جل خر کرد.

Pārsā bin ke xerqe dar bar kard, Jāme-ye Kabērā jal-e xar kard.

Mazmuni: *Zohidnamo kishiga nazar sol, o'zi zohidlar xirqasini kiygan-u, Kabapo'sh bo'lishga arziydigan kiyimni esa eshakning beliga solinadigan matoga aylantirgan.*

Quyidagi jumlada esa aynan shu fe'l bilan sinonimlik hosil qila oluvchi boshqa prefiksli بخلعت نوروزی قباى سبز ورق در بر گرفته و اطفال شاخ را بقدم موسم ربیع کلاه شکوفه بر سر نهاده.

Be xel'at-e nawruzi yabā-ye sabz-e waray dar bar gerefte, atfāl-e šāxrā beyudum-e mawsum-e rab'i kulāh-e šokufe bar sar nehāde. (G. 7-bet).

Tarjiması: *Yashil bargli bahoriy ko'ylak kiygizgan va shox bolalarga bahorning kirib kelishi bilan gulchambar taqqan edi.*

Yuqorida keltirilgan *dar bar kardan* va *dar bar gereftan* qo'shma fe'llari "pušāndan" sodda fe'li bilan sinonimlik hosil qila oladi.

"Guliston" asarida keltirilgan misollardan tashqari *dar* prefiksi ishtirokida yasalgan quyidagi qo'shma fe'llarni uchratish mumkin:

در خروش آمدن (*dar xoruř āmadan – xurushga kirmoq*), در دل آمدن (*dar del māndan- ko'ngilda qolmoq*), در دل ماندن (*dar del āmadan- ko'ngilga kelmoq, istamoq*), در میان نهادن (*dar miyān nehādan – oshkor qilmoq, o'rtağa tashlamoq*).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Guliston” asarida mazkur model asosida yasalgan qo'shma fe'llarning qo'llanishi kam uchraydi. *Dar* prefiksi garchi mustaqil ma'no ifodalama ham, qo'shma fe'l yasalishida ishtirok etadi, aksariyat o'rinlarda o'zining grammatik ma'nosini qisman saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Расторгуева В.С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Т. 3: f-h. – Москва: Восточная литература, 2007. – 493 с.

2. Сирус Н.Ш. Сложный глагол как основная аналитическая тенденция развития глагольной системы в современном персидском языке. – М.: МГИМО, 2016. – (6) С. 49-61.

3. Арманд Е.Е. Глаголы с превербами в классическом персидском языке. – С. 88-89. https://rodyaz.ru/pdf/21-1/07_Armand_RY211.pdf

4. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2022). “Shavqi guliston” asari matnining tuzilishi. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 192-195.

5. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2023). “Guliston” dagi “fe'l masdari+gereftan” modeli fe'l shakllari borasidagi nazariy qarashlar. Theory and analytical aspects of recent research, 2(16), 149-152.

6. Fayzullajon o'g'li, T. O. (2023). به (Be) prefiksi+ism+yordamchi fe'l modelidagi qo'shma fe'llar xususida. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 382-386.